


PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



Manzura OCHILOVA

Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

SHARQ MUTAFFAKKIRLARI MEROSIDA OILADA BOLALARINI AXLOQIY TARBIYALASH

Maqolada axloqiy tarbiya, oila, Sharq mutaffakirlarining merosi va ularda yoritilgan ta’lim-tarbiya masalalari o‘z aksini topgan. Oilada bolalarini axloqiy tarbiyalash yo‘llari mazmun-mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy tarbiya, oila, Sharq mutaffakirlari merosi, hadis, odob-axloq, yaxshilik, otona, mehr, muhabbat, ilm, bilim, dunyoqarash.

В статье освещаются вопросы нравственного воспитания, семьи, наследия восточных мыслителей, а также вопросы образования и воспитания. Освещаются пути и сущность нравственного воспитания детей в семье.

Ключевые слова: нравственное воспитание, семья, наследие восточных мыслителей, хадис, нравственность, доброта, родительство, любовь, наука, знание, мировоззрение.

The article covers the issues of moral education, family, the heritage of Eastern thinkers, as well as issues of education and upbringing. The ways and essence of moral education of children in the family are highlighted.

Key words: moral education, family, heritage of Eastern thinkers, hadith, morality, kindness, parenting, love, science, knowledge, worldview.

Kirish. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum xatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Axloq odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mehnat mahsulotlari va shu kabilarga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘ladi.

Odob – odamning jamoat, el-yurt orasida o‘zini tutish, boshqalar bilan qay yo‘sinda muomala qilish, o‘z turmushi, maishati va bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari qanday bo‘lishi lozim va ma‘qul ekanligi xususida bahs etadi. Aniqrog‘i, axloq kishining ichki olami, e’tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo‘ladi. Axloq kishidan har xil holatlarda qanday yo‘l tutish kerakligini yaxshi o‘ylab, maqsadga muvofiq harakat qilishni talab etsa, odob o‘z qoidalaring odad tusiga kirishini, ya’ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini taqozo qiladi. Axloq ilmi yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib, insonning kamolotga erishish yo‘lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo‘lgani kabi uning axloq-odobi ham juda murakkab olam, desak yanglishmaymiz. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolat-u diyonat, hayo-yu iffat, vafo-yu sadoqat, himmat-u saxovat, imon-e’tiqod kabilalar mujassam bo‘ladi, Ayni holda shu xislatlarning aksi beburd, axloqsiz kimsalar fe’lida ko‘rinadi.

Asosiy qism. Qadimgi faylasuflar-u donishmandlar axloq-odobga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deganlar. Asrlar davomida axloq-odob mavzusida qanchadan-qancha kitoblar, hikmatnomalar, odobnomalar, pandnomalar va nasihatnomalar, ibratli hikmat-u rivoyatlar yaratilgan. Xalq og‘zaki ijodi xazinalarida axloq-odobga doir bebaaho fikr javohirlari borki, ularning hammasini hisoblab hisobiga, ta’riflab ta’rifiga yetib bo‘lmaydi. Muqaddas Qur’oni Karimda va payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o‘z ifodasini topgan.

Insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg‘otish, ongli intozomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilalar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini yuqori pog‘onaga ko‘tarishdir. Imon va insof, so‘z va ish birligi, insonparvarlik – yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo‘lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas‘uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sho‘rocha axloq usullaridan voz kechib, sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o‘quvchilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri – ongli intizom bo‘lishidir. Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Ongli,

intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir. Ongli intizom egasi bo'lgan kishi o'z axloqiy burchini to'g'ri anglaydi, o'z xatti-harakatlariga baho beradi, noto'g'ri xatti-harakatni qoralaydi. Intizomli kishi o'z xulq-atvoriga to'g'ri baho berish bilan birga biror xatti-harakat uchun shaxsiy mas'uliyatni his etadi.

Abdulla Avloniy "Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilar. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar" deb ta'kidlaydi. Demak, intizom ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan xislat, tartib-odob, ma'naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbaidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyatida, usullari va shakllarida jiddiy "o'zgarishlar" ro'y berdi. Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlanТИrish asosiy o'rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarga e'tibor kuchaydi. Haqiqatan ham, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqbolini rivojlanТИrish, avvalo, komil insonlarga bog'liq. Komil inson O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tafbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi, ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylik kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Kishi o'z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oid dastlabki fikrlar "Avesto" kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarida, allomalar merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan.

Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajodolarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar, Beruniy, Forobi, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur axloqi husniya – yaxshi xulqlar egasi bo'lган. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'yagan, balki yetti o'lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma'naviyati sultanatida o'z o'rinlariga ega bo'lган buyuk bobokalonlarimiz o'zining axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. "O'g'llarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarimni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tafbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin".

Ismoil Al-Buxoriy "Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham zarari yo'kdir", - deb yozadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi.

Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlardan mustaqil O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqidir.

Abu Ali ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo'lmish "Tib qonunlari", "Ash-shifo" va boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, odamga do'st tutinishning uch xil yo'li bor: "Birinchidan, har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishni, ikkinchidan, g'oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlikni va uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeyiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi", - deb ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonida hokim bilan xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga e'tibor beradi. Uning fikricha, agar beklar tabiatan ezgu bo'lsalar, barcha fuqarosi boyiydi, olam guliston bo'ladi. Shuningdek, "Hamma narsaning qoidasi, tartibi, ta'limi bor, tartib, odob qoidalalarini to'g'ri tutsa, kishining yuzi yorug' bo'ladi", - deb ta'kidlaydi.

Muhokamalar va natijalar. Oila jamiyatning boshlang‘ich ijtimoiy bo‘g‘inidir. U o‘zida oila a’zolarining eshtiyorlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi.

Oilaviy tarbiya ta’limoti va uslubiyotini, ya’ni oilaning o‘ziga xos xususiyatlarini, uning mavjud imkoniyatlarini o‘rganish tarbiyaviy ish olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy faoliyatning muhim ijtimoiy belgilari quyidagilardan iboratdir:

1. Oila jamiyat ichida faoliyat ko‘rsatadi, undagi ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida bo‘ladi va ularni bevosita o‘zlashtiradi.

2. Oila jamiyat ichida yashab, undan ta’sirlanib, o‘z o‘rnida o‘zi ham jamiyatga ma’lum darajada ta’sirini o‘tkazadi.

3. Oila tarbiyasi o‘z milliy va demografik xususiyatlari bilan bir-biridan o‘zaro farqlanadi.

4. Oilaning faoliyati uning vazifalari, tuzilishi, ijtimoiy turmush tarzi, oila a’zolarining ijtimoiy faoliyati, ularning qiziqishlari, eshtiyorlari va o‘zaro munosabatlariiga bog‘liqdir.

Oilani o‘rganish uchun oilaviy tarbiyada muhim o‘rin tutadigan, turli-tuman ijtimoiy omillarni hisobga olish lozim:

1. Oilaning moddiy farovonligi.

2. Oilaning madaniy – ma’naviy saviyasi, osoyishtaligi.

3. Oila a’zolarining soni, tarkibi.

Oilaviy tarbiyaning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u bolalarga ota-onasiga, qon-qardoshlik, avlod-ajdod xislatlarini kuzatadi, uning davomiyligini saqlaydi, farzandni shaxs sifatida shakllantiradi, shayotga tayyorlaydi.

Oilaviy tarbiya doimo o‘zining murakkab va ko‘p qirraliligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi. Bu shu bilan izohlanadiki, har bir oila o‘ziga xos bir olam, olam ichidagi olam, olam ichidagi va shu bilan birga olamga sig‘magan olam, u tarbiya ishida o‘ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o‘zida namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning hammaga ma’qul tushadigan, yo‘l-yo‘riqlari mavjud emas. Buyuk tarbiyachilararning o‘z farzandlarini tarbiyalashda ojiz qolganliklari, barcha ijtimoiy-maishiy imkoniyat mavjud bilishiga qaramasdan bola tarbiyasining so‘lga og‘ishi kabi qator hodisalar hayotdagiga bor gaplardir va tarbiyaning o‘ta murakkab va qiyinligiga yana bir misoldir.

Har bir millat o‘ziga xosligi, milliy-ma’naviy boyligi, ijtimoiy-ruhiy darajasi bilan ajralib turadi.

O‘zbek xalqi o‘zining uzoq, tadrijiy-tarixiy kelib chiqishi davomida o‘z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, tuyg‘usi, ongi, mijoz, axloqi, didi, ta’bi kabi o‘ziga xos xususiyatlarini tarkib toptirgandir.

Ma’lumki, xalqimizning tarixiy an’analari, urf-odatlari, udumlari, rasm-rusumlari, tarbiyasi boshqa xalqlardan farqlanadi. O‘zbek xalqidagi odoblilik, kattalarni hurmat qilish, xushmuomalalik, ko‘ngli va qo‘li ochiqlik kabi xislatlar allaqachon dunyo xalqlari tomonidan e’tirof etilgan va tan olingan. Mustaqillik, chidamlilik, qat‘iylik, matonat kabi irodaviy, poklik, intizomilik, samimiylilik, haqqoniylik, insonparvarlik kabi axloqiy xislatlarni tarkib toptirgan tarixiy sinovdan o‘tkazgan xalq bu! Shu bilan birgalikda nohaqlikka chiday olmaydigan, zo‘ravonlarga ayovsiz, yurgan yo‘lidan ortga qaytmaslik, bir so‘zlilik xislatlari ham xalqimizga xosdir.

Milliylik xususiyatlari axloqiylikda, o‘z-o‘zini anglashda, milliy tuyg‘uda, milliy madaniyatda, milliy kiyinishda va yurish-turishda o‘z aksini topadiki, o‘zbek oilasining tuzilishi va shaxslaro munosabatlari masalasini o‘rganishda bu jihatlarni chetlab o‘tish mumkin emas.

O‘zbek oilalari tuzilishiga quyidagi sifatlar xosdir:

1. Ko‘p bolalilik.

2. Oilada otaning bosh tarbiyachi sifatida namoyon bo‘lishi.

3. Qarindoshchilik.

4. Bir necha avlodlarning birgalikda yashashi (buva va buvi, ota-onasiga, farzandlar, nevaralar, evaralar).

O‘zbek oilalari ham barcha xalqlar qatori quyidagi yo‘nalishlari bilan farqlanadi;

1. Yaxshi oilalar.

2. Ziddiyatli oilalar.

3. Ijtimoiy yo‘nalishi past bo‘lgan oilalar.

Birinchi toifa oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq qoidalari asosida amalga oshiriladi. Oila a’zolari tartibli, intizomli, mehnatsevar, biror sohaga qiziquvchanlik xislatini namoyon qiladi, moddiy boyliklarni o‘z ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida talqin qiladilar. Tasodifiy ziddiyatlarni hamjihatlikda tezda bartaraf etadilar.

Ikkinchi toifadagi oilalarda ijtimoiy yo‘nalish barqaror bo‘lmaydi. Oila a’zolarining nuqtayi-nazarlarini har xil bo‘ladi, oilada so‘z bilan ish birligi qarama-qarshi yo‘nalgan bo‘ladi. Hamjihatlik kam bo‘ladi. Bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta’sir o‘tkazish uchun kurashi raqobat shaklini oladi.

Uchinchi toifa oilalarda tor manfaatparastlik udumi hukm suradi. Bunda hamma narsa moddiy boyliklar – mol-u dunyo yig‘ishga qaratilgan bo‘ladi. Ko‘p pul topgan oila a’zosining ustunligi seziladi, zo‘ravonligi osha boradi. Ma’naviy qadriyatlar (kitob iqish, ma’naviy zavqlanish) kamsitiladi. Shu boisdan bu oilalarda jamiyat uchun foyda emas, zarari tegadigan xudbin, qo‘rroq axloqsiz o‘g‘il-qizlar yetishib chiqadi.

Shu narsani aloshida ta’kidlash kerakki, oilaviy munosabatlarda er-xotinning kasb-kori, ma’lumoti, bilimi, tajribasi muhim ashamiyat kasb etadi. Er-xotin qanchalik ahil bo‘lsa, oila shunchalik barqaror, mustahkam bo‘ladi.

Oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish - bu oila a’zolarining bo‘sh vaqtini unumli tashkil qilish demakdir. Oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish - bu oila a’zolarini axloqan pok ruhan tetik, ma’naviy yetuk kishilar qilib tarbiyalashning asosiy shartidir.

Inson axloqiy, ma’naviy va ruhiy qiyofasinining poydevori oilada qo‘yiladi. Shuning uchun xalqimiz bola tarbiyasiga aloshida e’tibor bilan qaraydi. “Bola-boshdan, nihol yoshdan” degan xalq naqli bejiz aytilmagan.

Bola tarbiyasining pedagogik-ruhiy xususiyatlari shakllanish jarayoni juda ham murakkab va yashirin tarzda o‘tadi. Uni sinchkovlik bilan kuzatib borish talab etiladi.

Bola tug‘ilgandan ko‘p o‘tmayoq eng zarur ruhiy xususiyatlarni egallay boshlaydi va bu jarayon yoshdan-yoshga shitob bilan isib boradi. Kichkintoylar ikki yoshdan so‘zlashishi malakasini egallaydi va bu undan katta yoshdagagi bolalar bir kunda 3000 tagacha yonidagi kishilarga turli-tuman savollarni beradi va javob olishni istaydi. Bu payt bola tom ma’noda butun vujudi bilan dunyoni o‘rganishga kirishadi. Mashhur yozuvchi va pedagog L.Tolstoy bejizga bolalik bilan qolgan umr o‘rtasidagi tenglik ishorasini qo‘ymagan. Ota-onalar, tarbiyachilar bu davr xususiyatlarini atroficha o‘rganishlari, bolalar tarbiyasiga jiddiy e’tibor qilishlari lozim.

Bolalar bu davrda sho‘x, serg‘ayrat, tinib-tinchimas bo‘ladi. Shuning uchun ota-onalar, tarbiyachilar bola ruhiy dunyosidagi jiddiy o‘zgarishlarni payqab olishlari zarur. Ularni uch-to‘rt yoshga yetganlaridayoq yuvinish, kiyinish, idish-tovoqlarni keltirish, uy hayvonlarini boqish, ukalarini o‘ynatish, qiz bolalarni onalarga, o‘g‘il bolalarni otalarga turli-tuman ishlarda dastyor bo‘lishga o‘rgata borish kerak. Bu bilan ularda xulq-atvorni idora qilish, olam hayotiy bilimlarni egallah malakalari shakllana boradi.

Olti yoshli bola ruhiy dunyosining rivojlanishida, beistisno turli o‘yinlarning ahamiyati kattadir. Ular o‘yin jarayonida turmush voqealarini o‘zida aks ettiradi, o‘z-o‘zi, o‘yinchog‘i, tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi.

Bu yoshdagagi bolalarning kuzatuvchanlik, sinchkovlik qobiliyatları tez sur’atlar o‘sə boshlaydi, xotirada saqlanib qolish faoliyati takomillashadi. Shuning uchun ota-onalar, bog‘cha tarbiyachilar ular yoshiga mos jippi she‘r, hikoyalarni, topishmoq, tez aytishlarni o‘rgatsalar, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bolaning mакtabga borishi uning hayotida unutilmas voqeaga aylanadi. U oila va mahalla mushitidan keng, shovqinli maktab mushitiga kirib boradi. Uning oilada tarkib topgan ko‘pgina odatlari u yerda yangi odat, qoidalarga to‘qnash keladi. Ixtiyor, nojo‘ya harakatlardan o‘zini tiya boshlaydi, yangi ijobjiy xislatlarni o‘zlashtiradi. Muloqot doirasi kengayadi, fikri, tili o‘sadi.

Bola sinfdan-sinfga o‘tishi bilan undagi mustaqillik, ruhiy xususiyatlari, qat’iylik, irodaviy xislatlar o‘sə boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Sharq murafakkirlari o‘zlarining pedagogik qarashlari bilan o‘z davrlaridan ancha ilgarilab ketganlar. Ularning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoqda va hozirgi kunda ham ular o‘z qiymatini yo‘qtgani yo‘q Ular bizning ma’naviy qadriyatimizdir. Shunga ko‘ra mutafakkirlarning o‘lmas merosi oilada bolalarning ma’naviy axloqiy tarbiyalashning muhim omili bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Otamurodova R. O‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasi // Xalq ta’limi j., 2000. 6-son. – 26-28 b.
2. Mahmudova G.I. Oliy pedagogik ta’lim to‘zimida o‘quvchilarni ma’naviy shakllantirishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T., 2004. – 179 b.
3. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Ped.fanl.dokt. ... diss. – T., 2000. – 305 b.
4. Musurmonova O. Oila ma’naviyati va milliy g‘urur. – T.: “Fan”, 1996.
5. Abdullayev D.I., Ishmuhamedov R.J. Bolalarni tarbiyalashda va sog‘lomlashdirish ishlarida pedagogik texnologiya. –Toshkent, 2002.

Dildora TOSHEVA

Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “ATROFIMIZDAGI OLAM” FANIDAN “YASHIL DORIXONA” MAVZUSINI O’QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Ushbu maqola tabiat ne'mati bo'lmish yovvoyi va dorivor o'simliklar, ularning inson hayoti va salomatligi uchun muhim bo'lgan foydali xususiyatlari, ulardan to'g'ri foydalanish, yosh avlodni, tabiatni sevish va unga to'g'ri munosabatda bo'lish haqida.

Kalit so'zlar: o'simlik dunyosi, inson ehtiyoji, dorivor o'simliklar, tabobat sirlari.

Эта статья о диких и лекарственных растениях, которые являются благом природы, их полезных свойствах, важных для жизни и здоровья человека, их правильном использовании, о том, чтобы молодое поколение любила природу и относилось к ней должным образом.

Ключевые слова: флора, потребности человека, лекарственные растения, врачебные секреты.

This article is about wild and medicinal plants, which are a blessing of nature, their beneficial properties important for human life and health, their correct use, about how the younger generation loves nature and treats it properly.

Key words: flora, human needs, medicinal plants, medical secrets.

Kirish. Inson onadan tug‘ilib, dunyoga kelgan chog‘idanoq tabiat ehsonidan bahramand bo‘ladi. Ilk bor havodan to‘yib nafas oladi. Odamzod o‘sib-unishi uchun oziq-ovqat, suv, quyosh harorati juda zarur bo‘lib, u bularning hammasini tabiatdan oladi. Insonni ona tug‘ib tarbiyalasa, tabiat-voyaga yetkazadi. Shuning uchun uni “Ona-tabiat” deb atashadi. Odamzodning sog‘lom bo‘lishi uni o‘rab olgan atrof-muhitga, tabiatga bog‘liq. Tabiat musaffo bo‘lsa, odam ham sog‘lom, baquvvat bo‘ladi.

Tabiat kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi yagona manbadir. Inson nafaqat jismonan, balki qalban ham tabiatsiz kun kechira olmaydi. Jamiyat esa tabiatning bir bo‘lagi va doimo uning qurshovida. Tabiat bilan jamiyatning hayot muhiti o‘rtasida chegara o‘tkazish juda murakkab. Tabiat shunday odil mo‘jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi.

Inson ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak ham tabiatdan olinadi, hattoki insonning xastalikdan qutulishi, salomatligini tiklash uchun zarur bo‘lgan dori-darmonlar ham ona tabiatda yetishgan mevalar, turli giyohlar va ziravorlardan tayyorlanadi. Inson tanasida birorta ortiqcha a’zo bo‘lmaganiday, tabiatda ham ortiqcha yaratilgan birorta narsa yo‘q. Ularning hammasi hayot uchun zarur.

Mamlakatimizning boy o’simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o’simliklar mavjud, ular orasida dorivor o’simliklar ham bor. Bunday o’tlar ekologik toza bo‘lib oziq-ovqat, aromatik va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlataladi.

Bizning yurtimiz dorivor o’simliklarga boy. Mahalliy floraga mansub 4.3 mingdan ortiq o’simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanib kelinmoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan “Yovvoyi holda o’suvchi dorivor o’simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori juda dolzarbdir. Ushbu Qarorda dorivor o’simliklarni yetishtirish va qayta ishslashni yanada rivojlantirish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ushbu sohada ta’lim, fan va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish zarurati belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda umumta’lim maktabalarining boshlang‘ich sinflarida “Atrofimizdagi olam”, “Tabiatshunoslik” yuqori sinflarda “Botanika”, “Biologiya”, “Geografiya” kabi fan predmetlari asosida yosh avlodga o’simliklar olami va uning turlari, dorivor o’simliklar va ularning inson salomatligi uchun ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.

Asosiy qism. O‘zbekistonning o’simlik dunyosi juda boy va rang-barangdir. Cho‘l va dashtlar, tog‘lar va adirlar, pasttekisliklar va daryo deltalarini yonma-yon joylashib, ajoyib manzara hosil qiladi. Bu aqlbovar qilmaydigan bo‘lib tuyulishi mumkin, ammo aslida Markaziy Osiyoni qo‘shni mintaqalari bilan taqqoslaganda, O‘zbekistonning tog‘laridagi maydon birligiga nisbati bo‘yicha o’simliklar soni bir necha baravar ko‘p.

Markaziy Osiyoda, ayniqsa, dorivor yovvoyi o’simlik turlari juda ham ko’pligi haqida sharq mutaffakirlari asarlarida aniq va batavsif ma’lumot berib o’tilgan. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino o’z asarlaridan birida shunday fikrlarni bayon etib o’tgan: **“Dori-darmonlarni tabiatdan o’rganing, inson izlayotgan narsani u allaqachon yaratgan”**. Tabiat shunday odil mo’jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Insonni yashashga undaydi va inson tabiat va uning ne’matlari asosida yashaydi va ijtimoiylashadi.

Inson salomatligi va uning sog’ligiga zarar yetkazuvchi madaniy hamda yovvoyi dorivor o’simliklar mavjuddir.

Dorivor o’simliklar - odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o’simliklar va giyoqlar. Yer yuzida dorivor o’simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o’simlik turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O’zbekistonda dorivor o’simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o’sadigan hamda madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o’simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo’llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40-47% o’simlik xomashyolaridan olinadi. O’simliklar murakkab tuzilishga ega bo’lgan jonli tabiiy kimyoviy labaratoriya bo’lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o’simlikning quritilgan o’ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po’stlog’i, bargi, guli, g’unchasi, mevasi (urug’i), danagi, sharbat, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan dori-darmon tarzida foydalaniladi.

Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne’matlaridan foydalana boshlaganidan buyon dorivor o’tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3-4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qadimgi Misr mamlakatlari shifobaxsh o’simliklar haqida ma’lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan, Markaziy Osiyo xalq tabobatida dorivor o’simliklardan foydalanib davolash o’zining qadim an’analariga ega. Shifobaxsh o’simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali ibn Sinoning “Al-qonun” asarida 476 ga yaqin o’simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to‘g’risida ma’lumotlar keltiriladi.

Bundan tashqari Abu Rayhon Beruniyham “Dorivor o’simliklar haqidagi kitob” asarini yozgan. Bu asarning qo’lyozma nusxasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Ushbu asar “Saydana” nomi bilan mashhur. Bu asarda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o’sadigan dorivor o’simliklarning to’la tavsifini bergen. Jumladan “Saydana” asarida 1116 tur dorivorni tavsiflaydi. Shundan 750 turi o’simliklardan, 101 turi hayvonlardan, qolgan 255 turi minerallardan olinishi haqida ma’lumot berib o’tgan. “Saydana” asarining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, unda Abu Rayhon Beruniy dorishunoslik o’zi alohida fan bo’lishligini ta’kidlab, shu bilan farmakologiya fanini asoslaydi.

Dorivor o’simliklardan insonlar nafaqat o’rta asrlarda yoki bugungi kunda, balki insoniyat madaniylashgan davrdan boshlab foydalana oлган.

Qadim zamonlardoq Janubiy Amerika hindulari kasal bo’lib qolgan puma (yovvoyi mushuk)lar qandaydir daraxtning po’stlog’ini g’ajishini sezganlar. Hindular bu daraxt po’stlog’i qaynatmasi bilan bezgakdan azob chekayotgan kasal kishilarini davolab ko’rganlar. Shu yo’sinda “xin daraxti” kashf etildi (Janubiy Amerikani zabit etgan ispanlar bu daraxtni shunday deb ataganlar). Bu daraxtning po’stlog’idan olinadigan xinin butun dunyoda bezgakka qarshi dori sifatida ishlatiladigan bo’ldi.

Dorivor o’simliklarni izlash va amalda qo’llash bundan ming yillar ilgari boshlangan.

Qadimgi Misrda kasallar uchun ham, sog’lom kishilar uchun ham har oyning uchinchi kunida kanakunjut moyini ichish rasm bo’lgan. Qadimda uyqusizlik kasalligiga yo’liqqan kishilar Yunoniston shaharlaridan biriga kelishgan. Bemor bu shahar aholisining ko’knori sharbatidan tayyorlagan ichimligini ichishi bilan tez uyquga ketgan. Ertasi kuni ertalab bu musofirlar dehqonchilik ma’budasi ibodatxonasiga kelib, uyqu keltiruvchi va og’riqni bosuvchi gulni kishilarga hadya etgani uchun ma’budaga minnatdorchilik bildirganlar. Ibodatxona kohinlari ko’knoridan gulchambar taqib yurishgan.

Ayrim hollarda dorivor o’simliklarni aniqlash insonga qimmatga tushgan, chunki dorivor o’simliklar ta’sirini u dastlab o’zida sinab ko’rgan. Zubturum bargi oyoqdagi yarani tuzatgan, qichitqi o’t bargi esa kuydirgan. Bir qism limono’t mevasi ovchiga kuni bo’yi toliqmay hayvon ovlashga yordam beradi, mingdevona mevasi esa kishining qo’l-oyog’ini tirishtirib, esi past odamga o’xshab poyma-poy so’zlashiga sabab bo’ladi.

Rivoyatlarga ko’ra, dorivor zaharli belladonna o’simligi Shotlandiyadagi bir qishloq aholisining dashmandan qutulishiga yordam bergen. Qishloqni Daniya askarlari ishg’ol qilgan. Ular g’alaba sharafiga pivo ichib, g’oliblikdan mag’lublikka duchor bo’lganlar. Shotlandiyaliklar pivoga aralashtirib bergen belladonnaning zaharli sharbatи daniyalik askarlarni shol qilib qo’yan.

Qadim zamonlarda kishilarning bilim darajasi yetarli bo’limganligi tufayli o’simliklar ularga sehrli va fusunkor bo’lib ko’ringan. Xazinalar yashiringan joyni topib beradigan, es-hushni olib qo’yadigan,

sevmaganni sevdiradigan o‘tlar borligiga ishonganlar. Odamchalarga o‘xhash jenshen va mehriyiyoh ildizi haqida ko‘pdan-ko‘p afsonalar to‘qilgan. Jenshen ildizining kuchsizlanib, holdan toygan kishilarga quvvat bag‘ishlashi, albatta, mo‘jiza deb bilingan. Vaqtlar o‘tishi bilan ilm va fan muayyan o‘simliklikning qanday qilib davo bo‘lishini tushuntirib berdi, afsonaviy gaplar esa, o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketdi. Dorivor o‘simliklarning shifobaxshligi - ular tarkibida ma’lum ta’sir qiluvchi kimyoviy moddalar: alkaloidlar, flavonoidlar, glikozinlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar va boshqalar borligidadir.

Ko‘pgina shifobaxsh o‘simliklar tibbiyotda qo‘llaniladi va hozirgi kunda ham kishilar o‘simliklarning kimyoviy tarkibini mukammal o‘rganishga erishdilar. Bu esa o‘z navbatida yangi-yangi kashfiyotlarga olib keldi.

Muhokamalar va natijalar. Bugungi kunda jamiyatimizda xalq tabobatidan foydalanish nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda keng quloch ochib rivojlanayotgan soha desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Insonlar o‘z salomatligini tabiiy ne’matlar va giyohlar bilan qayta tiklashga, sog‘lom turmush tarziga rioya qilgan holda yashashga o‘rganmoqdalar. Chunki bugungi kunda ona tabiatga nisbatan noto‘gri munosabat ekologik muammolarning vujudga kelishi, atmosfera va suvlarning ifloslanish, insonlar hayotida turli kasalliklarning paydo bo‘lishi o‘z navbatida davo choralarini ko‘rvuchi farmatsevtik mahsulotlarga ehtiyoj ortib boradi. Bu esa shu sohani yanada takomillashtirishga olib keladi. Biz tibbiyotda qo‘llayotgan barcha dorilar dorivor o‘simliklardan olinadi.

Dorivor o‘simliklar va ularning turlari haqida bolalarga maktabdanoq ma’lumot berib o‘tish lozim. Shu maqsadda Davlat ta‘lim stsndartiga muvofig o‘quv reja va darsliklarimizda bu haqda nazariy bilimlar berilgan. 1-sinf “Atrofimizdagi olam” darsligidagi 30-mavzu aynan “Yashil dorixona” deb nomlangan bo‘lib, unda yurtimizda o‘sadigan madaniy va yovvoyi o‘simliklardan yalpiz, qichitqi o‘t, moychechak, gulxayri kabilar dorivor o‘simlik ekanligi aytib o‘tilgan. Biroq ularning foydali tomoni batafsil ochib berilmagan. 3-sinf “Tabiat” darsligida “Dorivor o‘simliklar” deb nomlangan mavzu mohiyatida yalpiz, jag‘jag‘, na’matak, isiriq, kashnich, maymunjon haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan.

Ularning ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Yalpiz - labguldoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 30-100 sm gacha yetadigan o‘simlik. Poyasi to‘rt qirrali. Bargi oddiy, poyada qarama-qarshi joylashgan. Iyun oyining oxiridan boshlab gullaydi. Gullari mayda, qizil, binafsharang, boshoqsimon to‘pgul hosil qiladi. Mevasi kosabargi bilan birlashib to‘rtta yong‘oqcha hosil qiladi. Bargidan damlama, efir moyida yalpiz suvi, qiyom, mentol, migren qalami, validol tayyorlanadi. Bu dorilar efir moyidan tayyorlangan yalpiz suvi va qiyomi ko‘ngil aynishini qoldirish, qayt qilishni qoldirish, uning oldini olish, ovqat hazm qilish, quloq, burun, nafas yo‘llari kasalliklari, tish og‘rig‘ini qoldiradigan migren qalami tayyorlanadi.

Yalpiz moyining asosiy qismini tashkil etgan modda – mentol validol va boshqa yurak kasalligi dorilar, tinchlantiruvchi dorilarga, kosmonavtlarning ovqatlanish ratsioniga kiradigan yalpizli karamelga ham qo‘shiladi.

Jag‘jag‘. Jag‘jag‘ ham erta bahorda o‘sib chiqadi. U, odatda, dalalarda bo‘ladi. Jag‘jag‘ chuchvara, somsaga solinib iste’mol qilinadi. Damlamasi odamning ichki a’zolaridan ketadigan qonni to‘xtatishga yordam beradi. Bunday damlama boshqa ko‘pgina kasalliklarga ham davo bo‘ladi.

Isiriq. Isiriq cho‘l, qir-adirlarda o‘sadi, yoqib tutatilsa, tutunidan kasallik tarqatuvchi mikroblar nobud bo‘ladi. Isiriqdan tayyorlangan damlama bod, bezgak, tutqanoq, uyqusizlik, shamollah kabi kasalliklarga davo bo‘ladi.

Kashnich. Kashnich ko‘kati vitaminlarga boydir. Kashnich urug‘idan tayyorlangan damlama yo‘talni to‘xtatadi. Og‘izdagи yoqimsiz hidni ketkazishda, ichak kasalliklarini davolashda ham shunday damlama ichiladi. Ovqatga solib ham iste’mol qilinadi. O‘zbekistonda oson va erkin o‘sadi. O‘simlik mukammal tozalash xususiyatlariga ega. O‘simlik tarkibidagi moddalar tanadan og‘ir metallarni olib chiqish va zararli ta’sirini zararsizlantirishga yordam beradi. Kashnich urug‘lari suvni tozalash uchun ham juda yaxshi qo‘llaniladi. Buning uchun qisqa vaqt ichida suv idishga urug‘lar solingan paketni tashlasangiz bo‘ldi.

Maymunjon. Maymunjon ariq bo‘ylarida, tog‘ yonbag‘irlarida daraxt va butalarga chirmashib o‘sadi. Maymunjon mevasi isitmani tushiradi, ich ketishini to‘xtatadi. Uni muntazam iste’mol qilgan odam shamollamaydi. Shamollagan odam maymunjon bargini damlab ichsa, shifo topadi.

Arpabodiyon. Arpabodiyon mevalari juda foydali. Uning tarkibida saratonga qarshi vosita – anetol, S vitaminini, qondagi xolesterin kamaytiradigan oziq to‘qimalar kabi kuchli moddalar mavjud. Bundan tashqari, arpabodiyon stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlantiradi va shamollah, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi. Arpabodiyon deyarli hech qanday qarshi ko‘rsatmalarga ega emas.

Hozirgi kunda **mog‘or zamburug‘i** deb ataladigan zamburug‘ dan penitsillin dorisi tayyorlanmoqda.

O‘rmonlarda o‘sadigan marvaridguldan yurak kasalligi bilan og‘riganlarga dori tayyorlanadi, o‘rmon etagi va nam o‘tloq yerlarda o‘sadigan valeriana o‘simligidan tinchlantiruvchi dori ishlanadi. O‘tloq yerlarda har qadamda dalachoy (uni xalq orasida 95 dardga davo bo‘ladi, deyishadi), bo‘yimodaron, ko‘ko‘t, gazako‘t, qora andiz va boshqa dorivor o‘simliklar o‘sib yotadi.

Dorivor o‘simliklarning organizmga ta’siri ularning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog‘liq. Bu birikmalar o‘simliklarning qismlarida turli miqdorda to‘planadi. Dori tayyorlash uchun o‘simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig‘iladi, masalan, po‘stlog‘i, kurtagi erta bahorda, bargi o‘simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, meva va urug‘lari pishganda, ildiz, ildizpoyasi bahorda yoki kech kuzda olinadi.

Dorivor o‘simliklar havo ochiq paytida, shudring ko‘tarilgach yig‘ib olinadi. Shuni esda tutish kerakki, ko‘pchilik o‘simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo‘ladi. Bunday dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar biroz ortiqroq bo‘lsa ham kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo‘liqtiradi. *Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, isiriq, kuchala, marvaridgul, mingbosh, mingdevona* va boshqalar shunday zaharli dorivor o‘simliklar jumlasidandir. Shuning uchun o‘simliklarni og‘izga olmaslik, shuningdek, ularni yig‘ib olayotgan paytda qo‘lni ko‘zga urmaslik kerak. O‘simliklarni yig‘ib olgandan keyin qo‘lni yaxshilab yuvish lozim. Zero, yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, dorivor o‘simliklar o‘zidan zaharli moddalar chiqaradi bu esa insonlar salomatligiga xavf soladi. Ayniqsa, kichik yoshli bolalarga ulardan foydalanishda ehtiyyotkorlik talab etiladi.

Dori vositalari nafaqat yovvoyi dorivor o‘t-o‘lanlardan, balki mevalardan va ularning urug‘laridan ham tayyorlanadi, yohud dori sifatida iste’mol qilinadi.

G‘iyosiddin Jazoiriy o‘zining “G‘iyohlar tilga kirganda” nomli asarida o‘simliklar, meva va sabzavotlarning inson salomatligi uchun muhim xususiyatlarini nasriy va nazmiy janrda ifoda etgan.

U **yong‘oq** haqida uning foydali xususiyatlari haqida shunday deydi: Yong‘oq asli yovvoyi o‘simlik bo‘lib, Kichik Osiyo, Eron va Yaponiyada o‘sgan. Uning bargi quritilib, qaynatilsa teri kasalliklarini davolashda, tomoq og‘riganda og‘izni chayish yo‘li orqali tomoq og‘rig‘ini davolashi, qolaversa, asablar charchaganda barglarni quritib issiq vamma qabul qilganda asablarni tinchlantirishi mumkin. Yong‘oq po‘stlog‘i va bargi ichak qurtlarini yo‘qotishda xizmat qiladi, qaynatilgan holda foydalansa, tish og‘rig‘ini qoldiradi, mag‘zi esa miyaga shira bo‘lib, xotirani mustahkamlaydi. Daraxt va meva tarkibida efir moyi bo‘lib daraxt soyasida dam olish tavsiya qilinmaydi. Undan chiqadigan uchuvchi gazlar insonlarni aqldan ozdirib qo‘yadi.

Bundan tashqari yong‘oqning yana bir qancha shifobaxsh xususiyatlari haqida adib ma’lumot berib o‘tgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoq joizki, barcha noz-u ne’matlar insonning hayoti va yashashi uchun juda muhimdir. O‘simlik yerda mavjud bo‘lgan barcha tirik organizmlar hayotida katta ahamiyatga ega. Avvalo, har bir inson yer yuzidagi o‘simliklarni ko‘paytirishga hissa qo‘shishi, kamaytirishdan o‘zini tiyishi lozim. O‘simliklarni ko‘paytirishning birdan-bir yo‘li - mevali va manzarali daraxtlarni iloji boricha ko‘proq ekishdir. Ularni parvarish qilish, bog‘-rog‘lar yaratish har bir inson uchun xayrli ish bo‘lishi bilan birga, savobli ish hamdir. Bunga har kim o‘zi amal qilishi, o‘zgalarni ham undashi, bu xayrli ishni o‘zidan kichik yoshdagilarga o‘rgatishi darkor. Inson tabiatdagi har bir giyoh, o‘t-o‘lan, dov-daraxt, parranda-darrandalarni hamda nimayiki kerakli bor zarur deb biladi. Ota-bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so‘lim daraxtzorlarni, qoya-g‘orlarni, xosiyatlari o‘t-o‘lanlarni, gul-giyohlarni asrashga, niyati nopol kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoqosti qilmaslikka alohida e’tibor berib kelganlar. Zero bugun o‘sib kelayotgan yoshlarga tabiatga to‘g‘ri munosabat ko‘rsatish odobini o‘rgatsak, unda ekologik madaniyat va tarbiyani takomillashtirsak, ona tabiat kelajak avlodga ham o‘z go‘zallagini namoyon eta oladi.

Adabiyotlar

1. Bahromov A, Sharipov Sh., Nabiyeva M. 3-sinf Tabiatshunoslik darslik. -T.: “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot, 2016-y. 74-76 b.
2. To‘xtayev A. Ekologiya // o‘quv qo‘llanma. -T., 1998. 11-15 b.
3. Mamadinova N., Ahmedova M. 1-sinf Atrofimizdagi olam darslik. -T. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016-y. 58-59 b.
4. Jazoiriy G‘. Giyohlar tilga kirganda. M.Hasaniy tarjimasi. -T., 2013-y. 3-6 b

МУНДАРИЖА

Бахтиёр АДИЗОВ. Креатив фикрлашга йўналтирилган таълим технологиялари	5
Ширинбой ОЛИМОВ. Таълимни технологиялаштиришнинг асосий элементи	9
Болта ХОДЖАЕВ. Олий ўкув юртларида муаммоли таълим технологиясини қўллашнинг айрим жиҳатлари.....	15
Nasiba AZIMOVA, Zarina NASIMOVA. O‘qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.....	20
Акбар ГУЛБОЕВ. Педагоглар фаолиятини ташхис қилишнинг назарий ва методологик асослари....	26
Qobiljon ABDULLAYEV, Nargiza BOBOMURODOVA. Qadimgi mesopatamiyadagi madaniy-ma’rifiy taraqqiyot sarchashmalari	30
Гулия ҲАБИБОВА, Умида БАҲРИЕВА. Талабаларнинг мустақил иши - таълимни ташкил этишининг етакчи шакли сифатида.....	33
Лола ЭЛИБОЕВА. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини ошириша интерфаол таълим методларидан фойдаланиш	37
O‘lmas QURBONOVA. O‘zbekiston va Finlyandiya ta’lim tizimi: muammo va istiqbollar.....	42
Гулчехра ИЗБУЛЛАЕВА. Муслиҳиддин Саъдий Шерозийнинг “Гулистон” ва “Бўстон” асари юксак дидактик манба сифатида	46
Gulnoz TOSHOVA. Pedagogik faoliyat va uni takomillashtirishda pedagog mahorati	52
Manzura OCHILOVA. Sharq mutaffakkirlari merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash.....	57
Dildora TOSHEVA. Boshlang‘ich sinflarda “Atrofimizdagi olam” fanidan “Yashil dorixona” mavzusini o‘qitishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	61
Bobomurod JO‘RAYEV. Somoniylar davrida ta’lim tizimi va mazmuni.....	65
Dilfuza RAKHMONOVA. Equirements for preschool education teacher.....	70
Matluba XOJIYEVA. TA’LIM JARAYONIDA AKSIOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	74
Нигина ИСМАТОВА. Оиласда болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланиш усул ва воситалари.....	79
Олимжон АХМАДОВ. Бухорода янги усул мактаблари фаолияти (XIX аср охири XX аср I чораги) .	83
Nilufar RAXIMOVA. Tarbiya va shaxs kamoloti	89
Gulshan SAIDNAZAROVA. Al-Buxoriyning hadislarida tarbiya masalasi	94
Нигора САЙФУЛЛАЕВА. Методика оценки развития экономического мышления у студентов вуза	98
Маърифат УМУРОВА. Мактабгача ёшдаги болаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мусиқанинг ўрни.....	103
Oybek ORTIQOV. O‘quvchi-yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash mazmuni	109
Феруза РАМАЗОНОВА. Бўлажак ўқитувчиларда касбий эътиқодни шакллантириш педагогик муаммо сифатида	113
Olimjon AHMADOV, Dilnoza ELOVA. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar).....	116
Madina BAXRAMOVA. Modulli ta’limni joriy etishning muammolari va yechimlari	120
Болта ХОДЖАЕВ, Ситора ШАРИПОВА. Талабаларнинг ўкув– билув фаолиятини активлаштиришда муаммоли таълим имкониятларидан фойдаланиш	124
Shaxlo XALILOVA. Jahon pedagogikasida pedagogik muloqotning zamонавиј uslublari va uning milliy pedagogik muloqot uslublari bilan integratsiyasi	129
Zuxriddin SHERNAZAROV. Abdulla Avloniyning ma’rifiy-pedagogik faoliyati	134
Феруза ЖУМАЕВА. Ўзбек оиласарида ёшларнинг оиласий тарбия ҳақидаги тасаввурларини шакллантириш	138